

**MILLIY GVARDIYA XODIMLARI TOMONIDAN MA'MURIY HUQUQBUZARLIK  
SODIR ETGAN SHAXSLARNI MA'MURIY YO'L BILAN VAQTINCHA USHLAB  
TURISHDAGI AYRIM MASALALAR**

**Nazarov G'anisher Baxodirovich**

*Sirdaryo viloyati Qo'riqlash boshqarmasi Yangiyer shaharlararo  
qo'riqlash bo'limi guruh komandiri, leytenant telefon:+998934017377  
ganishernazarov700@gmail.com*

**Annotation:** Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi xodimlari tomonidan tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan fuqarolarning shaxsiga oydinlik kiritish va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ma'muriy yo'l bilan vaqtincha ushlab turush bilan bog'liq muammolar va mazkur masalalarning huquqiy tartibga solish jihatlari tadqiq etilgan. Maqolada mazkur asosga ko'ra ma'muriy huquqbuzarlik sodir etib javobgarlik masalasidan bosh tortayotgan shaxslarni amaliyoti tahlil etilgan bo'lib, qonunchilik va amaliyotdagi o'zaro nomutanosibliklar hamda kollizion holatlar yortilgan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquq tahlil kabi metodlar qo'llanilgan. Tadqiqod ishida olimlarning fikri, ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar o'rganilgan. Buning natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasi qonunosti hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan fuqarolarning shaxsiga oydinlik kiritish, shaxsni ko'rikdan o'tkazish, "E- ma'muriy ish" baza orqali bayonna ma rasmiylashtirish

**НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ АДМИНИСТРАТИВНОГО ЗАДЕРЖАНИЯ ЛИЦ,  
СОВЕРШИВШИХ АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВОНАРУШЕНИЕ  
СОТРУДНИКАМИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ**

**Назаров Ганишер Баходирович**

*Управление отдела охраны Сырдарьинской области, Янгиер междугородний командир группы отдела охраны, лейтенант*

**Аннотация:** Эта статья — национальная гвардия Республики Узбекистан его сотрудниками исследованы проблемы, связанные с выяснением личности граждан, совершивших административные правонарушения, и времененным задержанием правонарушителей в административном порядке, а также аспекты правового регулирования этих вопросов. В статье анализируется практика лиц, которые на основании этого основания отказываются от ответственности за совершение административного правонарушения, а также выделяются несоответствия и противоречивые ситуации в законодательстве

и практике. В исследовании использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. В исследовательской работе изучено мнение ученых, передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды. В результате этого были разработаны предложения и рекомендации по внесению изменений и дополнений в законодательные документы Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** установление личности граждан, совершивших административное правонарушение, проведение проверки личности и составление протокола через базу данных «Электронное административное дело»

## SOME ISSUES OF ADMINISTRATIVE DETENTION OF PERSONS WHO COMMITTED AN ADMINISTRATIVE OFFENSE BY NATIONAL GUARD EMPLOYEES

**Nazarov Ganisher Bakhodirovich**

*Department of Security Department of Syrdarya Region, Yangier  
intercity group commander of the security department, lieutenant*

**Annotation:** This article is the National guard of the Republic of Uzbekistan its employees investigated the problems associated with identifying citizens who have committed administrative offenses and temporary administrative detention of offenders, as well as aspects of the legal regulation of these issues. The article analyzes the practice of persons who, on this basis, refuse responsibility for committing an administrative offense and also highlights inconsistencies and contradictory situations in legislation and practice. The research used methods such as analysis, synthesis, induction, deduction, and comparative legal analysis. The research work examined the opinion of scientists, advanced foreign experience, scientific and theoretical views. As a result, proposals and recommendations were developed for introducing changes and additions to the legislative documents of the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** identifying citizens who have committed an administrative offense, conducting identity verification and drawing up a protocol through the Electronic Administrative Case database.

Biz islohatlarimizning ilk kunlaridanoq inson qadrini ulug'lashni eng oliv qadriyat sifatida e'tirof etdik. Yangilangan Konstitutsiyamizda ham O'zbekiston huquqiy davlat ekanligini muhrlab qo'yidik. Yagona maqsadimiz –adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash orqali xalqimizni rozi qilish

SH.M.Mirziyoyev

Mamlakatimiz taraqqiyoti yangi bosqichga yuz tutayotgan bir vaqtida, rivoj topib borayotgan o'l kamiz jamiyati huquqiy ong va huquqiy madaniyat borasida yangi bir davrni boshdan kechirmoqda. Mamlakatimiz erishayotgan yutuqlar dunyo davlatlari

tomonidan tan olinishi bilan bir qatorda yurtimizda olib borilayotgan huquqiy islohotlar qizg'inlik bilan kuzatib kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizning huquqiy-demokratik davlatlar qatorida o'z o'rniga ega bo'lishi, iqtisodiyotning ravnaq topishi, investitsiya va o'zaro hamkorlik masalalarida ko'p jihatdan yuritimizda olib borilayotgan huquqiy islohatlarga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida yettita ustuvor yo'nalishdan biri bo'lgan, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo'nalishida "Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish" ko'rsatib o'tilgan.[1] Mazkur masalalar Yangi O'zbekistonning huquqiy davlat maqomini mustahkamlash, mamlakatimizdagi har bir shaxsning, xususan, harbiy xizmatchilar, xodimlarning huquq va erkinliklari kafolati bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11.01.2018-yildagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasiga jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash muhum vazifasini topshirganligi va O'zbekiston Respublikasining 14.05.2014-yildagi O'RQ-371-son "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuning 122-moddasi bilan O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida vakolatlar berilganligi hamda O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 2023-yil 12-may kunidagi O'RQ-842-son Qonuni Milliy Gvardiya organlari huquqbazarlikni profilaktika qilishda vakolatlar berish bilan birga ulkan mas'uliyat ham yuklaydi. O'RQ-842-son Qonunida O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi organlariga huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish, davlat obyektlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash, jamoat tartibini saqlash, jamoat joylarida patrullik qilish, shu bilan birga, mazkur vazifalarni to'laqonli amalga oshirish hamda xizmatni o'tash davomida aniqlangan huquqbazarliklarga nisbatan o'z vaqtida choralar ko'rish O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasiga ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida bayonnomalar tuzishga va ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish, O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi organlarining xodimlariga mayda bezorilik, sovuq qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalаниши mumkin bo'lgan ashylarni olib yurish, voyaga yetmagan shaxsni ma'muriy huquqbazarlik sodir etishga, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish, jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilish kabi ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish, bayonnomalar tuzish va ularni ko'rib chiqish uchun sudga yuborish yuzasidan qo'shimcha vakolatlar berish nazarda tutilgan bo'lib, ushbu vakolatlar kollizion holatlarni keltirib chiqaradi.

Jumladan, mazkur Qonuning 7-bandida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 2481-moddasiga o'zgartishlar kiritilishi O'zbekiston Respublikasi Milliy

Gvardiyasi organlari “Ma’muriy javobgarlik to’g’risida”gi Kodeksining 19 tamoddasi bo‘yicha ma’muriy bayonnomalar tuzish, tegishli tartibda uni ko’rib chiqish uchun sudga yuborish vakolatini berdi. Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksning 286, 288-moddalariga asosan Milliy Gvardiya organlari ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxsni ma’muriy tartibda ushlab turish huquqiga ega.

“Ma’muriy javobgarlik to’g’risida”gi Kodeksning 285-moddasiga binoan quyidagi hollarda ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs ushlab turilishi mumkin:

boshqa ta’sir ko’rsatish chorralari qo’llanib bo’linganidan keyin ma’muriy huquqbazarlikni to’xtatish maqsadida;

huquqbuzarning shaxsini aniqlash uchun;

basharti bayonnomaga tuzish zarur bo’lib, uni huquqbazarlik sodir etilgan joyning o’zida tuzish imkonini bo’lmagan taqdirda ma’muriy huquqbazarlik to’g’risida bayonnomaga tuzish uchun;

ishlarning o’z vaqtida va to’g’ri ko’rib chiqilishini ta’minlash va ma’muriy huquqbazarlik to’g’risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etishda;

shaxsni ko’rikdan o’tkazish uchun.

“Ma’muriy javobgarlik to’g’risida”gi Kodeksga asosan ma’muriy yo’l bilan ushlab turish uch soatdan ortiq davom etishi mumkin emas, alohida zarurat munosabati bilan qonun hujjatlarida boshqacha muddatlarning belgilanishi bundan mustasno.

Ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan fuqarolarning shaxsiga oydinlik kiritish, shaxsni ko’rikdan o’tkazish, ”E-ma’muriy ish“ baza orqali bayonnomaga rasmiylashtirish uchun doimiy ravishda viloyat markazlariga olib borilishi tuman (shahar) bo’limlari tomonidan noqulayliklar keltirib chiqarmoqda. Bu esa o’z o’rnida vaqt talab etadi, shu bilan birga, fuqarolarning noroziligini keltirib chiqarishga sabab bo’lmoqda.

Tsuprikova I.M. fikriga ko’ra, “Ma’muriy huquqbazarlikka chek qo’yish, ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan fuqarolarning shaxsini aniqlash va ma’muriy huquqbazarlik to’g’isidagi bayonnomani ma’muriy huquqbazarlik aniqlangan joyda tuzish kerak.[2]” deydi.

Tsuprikova I.M fikriga qo’shilgan holda ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan fuqarolarni ishlarni o’z vaqtida va to’g’ri ko’rib chiqilishini ta’minlash, shu bilan birga, ma’muriy huquqbazarlik to’g’risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida ma’muriy huquqbazarlik to’g’risidagi bayonnomani ma’muriy huquqbazarlik aniqlangan joyda o’z vaqtida tuzishdir. Bunda O’zbekiston Respublikasi “Ma’muriy javobgarlik to’g’risida”gi Kodeksning 284-moddasida huquqbuzarni ushlab keltirish tartibi belgilangan bo’lib, uni qisqa muddatga olib kelinishi, o’zini o’zi boshqarish organi binosiga huquqbuzarni olib kelingandan boshlab bir soatdan ortiq ushlab turilmasligi belgilangan. Buning uchun Milliy Gvardiya tuman (shahar) bo’limlarining elektron planshetlar bilan ta’minlanmaganligi, huquqbuzarning shaxsiga oydinlik kiritilishi, MJTKning 283-moddasida belgilangan tartibda ma’muriy huquqbazarlik to’g’risida bayonnomaga tuzilmaydigan hollarda jarima to’lash to’g’risida aybdorga belgilangan shakldagi kvitansiyalar berilishini, shu bilan birga,

elektron planshetlarning afzallik tomonlaridan huquqbazarlikning takroran sodir etilmaganligiga oydinlik kiritilishiga yordam beradi.

N.Kovaleva fikricha, shaxs erkinligi qisqa muddatli cheklash alohida hollarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ma'muriy huquqbazarlikni to'xtatish maqsadida huquqbuzarning shaxsini aniqlash, ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirish aniqlangan joyda iloji bo'lmasa, ma'muriy huquqbazarlikni o'z vaqtida samarali va to'g'ri ta'minlash imkonini beradi[3].

N.Kovalevaning fikriga qo'shilgan holda shaxs erkinliginiqisqa muddatli cheklash, ya'ni vaqtincha saqlash hibsxonalariga olib borilib huquqbazarliklar amaliyatda ko'p uchraydigan holatlarga barham berish huquqbuzarning shaxsiga oydinlik kiritish ma'muriy huquqbazarlik sodir etib, o'zi haqida ma'lumotlarni yashirishga urunganlarni ma'muriy huquqbazarliklarga barham berish maqsadida ma'muriy tartibda ushlab turiladi. O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksning 287-moddasida ma'muriy yo'l bilan ushlab turishga vakolatli organlar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bunda Milliy Gvardiya bo'linmalari ma'muriy tartibda ushlab turish vakolati berilgani bu esa o'z navbatida MJKning 288-moddasida ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddatlari Milliy Gvardiya bo'linmalari jamoat tartibini saqlashda va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan fuqarolarning huquqbuzarning shaxsini va huquqbazarlikning holatlarini aniqlash fuqarolarning shaxsiga oydinlik kiritilgan zahoti aniqlangan huquqbazarlik huquqbazar tomonidan 1 yil ichida takroran sodir etilmaganligi, agar sodir etilgan bo'lsa belgilangan tartibda qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy tartibda ish ko'riliшини ta'minlaydi. Buning uchun Milliy Gvardiya bo'linmalarida ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan fuqarolarning vaqtincha saqlash hibsxonalarini bilan jihozlanishini ta'minlash zarurligiga e'tibor qaratishimiz lozim.

Tadqiqotimiz doirasida quydagilar ma'lum bo'ldi: Milliy Gvardiya Qo'riqlash bo'linmalari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan anketa va so'rovnomalari natijasida haqiqatdan ham "E-ma'muriy ish" baza orqali bayonnomalar rasmiylashtirish uchun doimiy ravishda viloyat markazlariga olib borilishi tuman (shahar) bo'limlari tomonidan noqulayliklar keltiribchiqarilishi va ma'muriy huquqbazarliklarga sodir etib, huquqbazarliklarga barham berish maqsadida ma'muriy tartibda ushlab turish uchun vaqtincha saqlash hibsxonalarini hududiy Ichki ishlar idoralariga olib borilishi buning natijasida tushunmovchiliklar yuzaga kelishi aniqlandi[4]. 40 nafar (49%) Qo'riqlash bo'linmalari xodimlari bilan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma natijalari.

Yuqoridaagi fikrlarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi organlari "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksning 19 ta moddasi bo'yicha ma'muriy bayonnomalar tuzish, tegishli tartibda uni ko'rib chiqish uchun sudga yuborish va jarima tariqasidagi ma'muriy jazo choralarini qo'llash vakolatlarini belgilanganligi, bu esa o'z navbatida ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxslarga ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirish "E-ma'muriy ish" bazasi orqali elektron bayonnomalar rasmiylashtirilishi, shu bilan bir qatorda, bayonnomalar tuzilmaydigan

hollarda jarima to'lash to'g'risida aybdorga belgilangan shakldagi kvitansiyalar berilishini, elektron planshetlarning afzallik tomonlarini, hozirgi davrda Milliy Gvardiya Qo'riqlash tuman (shahar) bo'limlarining jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash vazifalarini bajarish vaqtida elektron planshetlar bilan ta'minlanishi, huquqbuzarning shaxsiga oydinlik kiritish, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etib, o'zi haqida ma'lumotlarni yashirishga urunganlarni ma'muriy huquqbuzarliklarga barham berish maqsadida ma'muriy tartibda hududiy ichki ishlar idoralarining vaqtinchalik saqlash hibsxonalarida ushlab turilishi uchun O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasining qo'shma qarorlari imzolanishi xodimlarga juda katta qulayliklar yaratadi, deb hisoblaymiz. Xulosa qilib aytganda, aholining osoyishtaligini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish uchun qo'shma qaror imzolanishi xodimlarning ish sifati ortishiga, vaqtning tejalishiga juda katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Xususan, Milliy Gvardiya tuzilmalarida vaqtinchalik hibsxonalarining tashkil etilishi, xodimlarni planshetlar bilan ta'minlanishi aybdor shaxsni aniqlash, jarimalarni undirish, vaqtinchalik maxsus hibsxonada ushlab turish, ular haqida bayonnomalarni rasmiylashtirish ishni yengillashtirishga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, IIB bilan hamkorlik esa hududda tinchlik va ososishtalikni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistoning Taraqqiyot strategyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prizidentining Farmoni, Toshkent sh 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son.

2. Balashixa shahar prokurori yordamchisi Tsuprikova I.M  
<https://balashiha.ru/article/chto-takoe-administrativnoe-zaderzhanie-i-dostavlenie-171132>

3. Ivanovo viloyatidagi inson huquqlari bo'yicha komissar Kovaleva Natalya Lvovna [https://map.ombudsmanrf.org/Karta\\_Yadro/prav\\_z\\_karta/sub\\_fed/centraln\\_fed/ivanovskaya Oblast/dokument\\_ivanov/dokument\\_17/dokument\\_17\\_web](https://map.ombudsmanrf.org/Karta_Yadro/prav_z_karta/sub_fed/centraln_fed/ivanovskaya Oblast/dokument_ivanov/dokument_17/dokument_17_web)

4. Tadqiqot ishlari olib borilgan xodimlar tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklarga barham berish va bayonnomalarni rasmiylashtirishda yuzaga keladigan mavjud muammo va noqulayliklar keltiribchiqarilishi yuzasidan amaliyotchi va huquqshunoslardan iborat respondentlar jamoasi o'tkazgan so'rovlar natijalari.